

O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar maktablarida ishga ariza berish bo'yicha trening

O'quv dastur va uni amalga oshirish
bo'yicha ko'rsatmalar

Dr. Pavel Utitz
Saboxon Raxmanova

German Sparkassenstiftung
for International Cooperation



Mundarija

1. Kirish
2. Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini topish va tushunish
3. CV tuzish
4. Muqova xat loyihasini tayyorlash
5. Online-ariza yozish
6. Intervyu

1

Kirish

Kirish

Dastur mazmuni



- Darslar turkumi nemis maktablarida ishga joylashish bo'yicha treninglar tajribasiga asoslangan.
- O'zbekiston va Germaniya madaniy muhiti biri biridan farq qilsada, ish qidirishga oid bilim va ko'nikmalar har ikki davlatda o'xshashdir.
- Ehtimol, qo'llanilayotgan ayrim misol va vazifalarni mamlakat shart-sharoitlariga moslashtirish kerakdir, biroq bu ularning O'zbekiston maktablarida qo'llanilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Kirish

Umumiy maqsadlar



- O'quvchilarning ishga ariza topshirish jarayonini muvaffaqiyatli o'tishiga tayyorlash
- O'quvchilarda ariza topshirish jarayoni talablari haqida bilimlarni shakllantirish
- O'quvchilarga ish o'rnini e'lonlarini izlashdan tortib intervyugacha bo'lgan jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish ko'nikmalariga o'rgatish
- Xalqaro standartlarga asoslangan "Europass" formatida CV tuzish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berish

Kirish

O'quv maqsadlari



- Ariza berishga tayyorlanish uchun muayyan ish o'rne talablarini tushunish;
- Ish beruvchilar ariza topshiruvchidan nimani kutishlarini bilish;
- Muqova xat va CV tuzish;
- "Europass" formatida CV tuzish;
- Intervyu savollariga javob berish va o'zining eng yaxshi jihatlarini ko'rsatish;
- O'z ko'nikma va tajribalarini ma'lum bir ish o'rniga mos kelishini ishonchli ifodalash;
- Internet platformalarida ish o'rinlari haqida ma'lumot topish, ularni tahlil qilish va onlayn ariza shakllantirish.

Kirish

O'quv dasturi mavzulari

№	Mavzular	Bilim va ko'nikmalar	O'quv yuklama	
			N/A	Mustaqil ta'lim
1.	Bo'sh (vakant) ish o'rinlarni topish va ular bilan ishlash	<ul style="list-style-type: none"> Onlayn platformalarni topish; kerakli ma'lumotlarni belgilash; malaka talablarida belgilangan talablarni tahlil qilish. 	2	2
2.	CV tuzish	<ul style="list-style-type: none"> Belgilangan tartibda CV tuzish; "Europass" onlayn platformasida CV tayyorlash. 	2	
3.	Muqova xat loyihasini tayyorlash va onlayn-ariza yozish	<ul style="list-style-type: none"> Matnni rejalashtirish va yozish; belgilangan mezonlar yordamida muqova xatni tayyorlash; yozma ariza va onlayn-ariza o'rtasidagi farqni aniqlash; onlayn-ariza yozish. 	2	2
4.	Ishga qabul qilish suhbatlari (intervyu)ga tayyorgarlik ko'rish	<ul style="list-style-type: none"> Suhbatga intensiv tayyorgarlik ko'rish; berilgan rol obrazini bajarish; guruhda Jamoaviy o'yinni tayyorlash va ijro etish. 	2	-
Jami			8	4

Kirish

Metodika



- Mavzular ketma-ketlik asosida shakllantirilgan
- Har bir mavzu, agar zarur bo'lsa, alohida o'rganib chiqilishi mumkin
- O'qituvchi tushuntirgandan so'ng, vazifalar o'quvchilar bilan birgalikda bajarilishi yoki har bir o'quvchi dars davomida mustaqil ravishda yoki kichik guruhlar tarkibida ishlashi mumkin
- Natijalar umumiy yoki kichik guruhlarda muhokama qilinadi va savollarga javob beriladi
- Aksariyat mavzulardan so'ng yakka tartibda uyga vazifalar beriladi

2

**Bo'sh ish
o'rinlari
e'lonlarini
topish va
tushunish**

Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini topish va tushunish

Mavzu mazmuni



- Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarining tuzilishi va mazmuni;
- Bo'sh ish o'rinlariga oid muhim ma'lumotlarni topish;
- Ish izlovchiga qo'yiladigan talablarni tushunish va baholash;
- Bo'sh ish o'rinlariga oid e'lonlarni topish bo'yicha ma'lumotlar (onlayn-platformalar);
- Onlayn-qidiruv;
- **Uyga vazifa:** Bo'sh ish o'rinlariga oid e'lonlarni tahlil qilish va baholash hamda tanlangan ish beruvchilar haqida internetdan ma'lumot yig'ish;

Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini topish va tushunish

O'quv maqsadlari



O'quvchilar ushbu mavzu bo'yicha quyidagilarni o'rganadilar:

- Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini to'g'ri tahlil qilish va tanqidiy baholash;
- Bo'sh ish o'rinlari e'lonidagi barcha tegishli ma'lumotlarni o'qish va yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlash;
- Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini qayerdan topish va ularni qanday qidirish;
- Bo'sh ish o'rinlari e'lonlari chop etiladigan onlayn platformalar bilan tanishish;
- Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini internet orqali mustaqil izlash.

Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini topish va tushunish

1-jarayon



O'quvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- Bo'sh ish o'ringa oid e'lonini oladilar va tegishli ma'lumotlarni qidiradilar
- Bo'sh ish o'ringa oid e'lon tuzilishini o'rganib, mazmunining muhim jihatlarini yoritadilar
- Duskada yozilgan har bir bandning ahamiyati haqida gapiradilar
- Bo'sh ish o'ringa oid e'lonni o'qishda alohida e'tiborga olish kerak bo'lgan masalalar ustida ishlaydilar

Bo'sh ish o'rinlari e'lonlarini topish va tushunish

2-jarayon



O'qituvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- Bo'sh ish o'rinlari e'loniga oid onlayn-platformalar bilan o'quvchilarni amaliy tanishtiradilar
- O'quvchilar bilan birgalikda bo'sh ish o'rinlariga oid e'lonlar qidiruvini amalga oshirishni mashq qiladilar
- 1- "Bo'sh ish o'rinlari e'lonlari" ishchi varaqasini uyga vazifa sifatida tarqatadilar.

Natijalar muhokamasi:

Uy vazifasi keyingi darsda baholanadi va savollar muhokamasi bo'lib o'tadi

3

CV tuzish

CV tuzish

Mavzu mazmuni



- CV tuzilmasi va uning mazmuni;
- CV bo'yicha tushuntirishlar va misollar yordamida o'z kontentini yaratish;
- “Europass-CV”ni tuzish bo'yicha qo'llanma bilan tanishtirish;
- **Uyga vazifa:** O'z CVsini shakllantirish;
- CV tuzish uchun nazorat ro'yxati;

CV tuzish

O'quv maqsadlari



O'quvchilar quyidagilarni o'rganadilar:

- CV mazmuni va uning tarkiblari;
- CV ko'rinishining to'g'ri tuzilmasi;
- CV ni tuzishda qo'llaniladigan kamchiliklarni oldini olish;
- Shaxsiy CV ni yozish.

CV tuzish

1-jarayon



O'quvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- CV yozish bosqichlarini o'rganadilar va CVga kiritilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni aytadilar;
- 2-**“CV- Xatolarini toping!”** ishchi varaqasini oladilar;
- 3-**“CV-Javoblar”** ishchi varaqasi bilan o'z natijalarini taqqoslaydilar;
- Natijalar sinfda yalpi muhokama qilinadi.
- **“Europass” CV**ni tuzish bo'yicha qo'llanmadan foydalanib,“Europass CV”ni tuzish haqida m'lumot oladilar.

CV tuzish

2-jarayon



O'qituvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- **“Europass”** CV bo'yicha natijalarni sinfda muhokama qiladilar;
- Avval CVni an'anaviy shaklda, keyin esa "Europass" formatida tayyorlashni uyga vazifa qilib beradilar;
- 4-**“CV bo'yicha nazorat ro'yxati”** ishchi varaqa va **“Europass” CV**ni tuzish bo'yicha qo'llanmani yordamchi vosita sifatida tarqatadilar.

Natijalar muhokamasi:

Keyingi darsda ayrim CVlar taqdimoti eshitiladi va sinf bilan muhokama qilinib, ochiq savollarga javob beriladi.

4

**Muqova xat
loyihasini
tayyorlash**

Muqova xat loyihasini tayyorlash

Mavzu mazmuni



- Muqova xatning tuzilishi va uning mazmuni;
- Na'muna sifatida berilgan muqova xatning kamchiliklarini aniqlash;
- Muqova xat matnini rejalashtirish va yozish;
- **Uyga vazifa:** muqova xat bo'yicha nazorat ro'yxatiga asoslangan xolda shaxsiy muqova xatini yozish.

Muqova xat loyihasini tayyorlash

O'quv maqsadlari



O'quvchilar quyidagilarga ega bo'ladilar:

- Bo'sh ish o'rniga ariza berish uchun shaxsiy muqova xatini yozishni o'rganadilar;
- Muqova xatning tuzilishi va qoidalari bilan bosqichma-bosqich tanishadilar;
- Uyga vazifa sifatida shaxsiy muqova xatini mustaqil yozadilar.

Muqova xat loyihasini tayyorlash

1-jarayon



O'quvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- Birinchi navbatda o'quvchilar muqova xatning tarkibiga nimalar kirishi bo'yicha o'z takliflarini beradilar;
- Takliflar doskaga yozilib, ularni muhokama qiladilar;
- 5-“**Muqova xat**” ishchi varaqasini olib, ushbu varaqa yordamida doskadagi takliflar ro'yxatiga qo'shimchalar kiritadilar;
- Umumiy natijalarni sinfda muhokama qiladilar.

Muqova xat loyihasini tayyorlash

2-jarayon



O'qituvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- 6- **“Muqova xat - Xatolarni toping!”** ishchi varaqasini tarqatadilar. O'quvchilar vazifa ustida mustaqil ishlaydilar (yakka tartibda yoki guruhda);
- 7- **“Muqova xati – Javoblar”** ishchi varaqasi – tarqatiladi;
- Natijalar sinfda birgalikda muhokama qilinadi.

Muqova xat loyihasini tayyorlash

3-jarayon



O'qituvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- O'quvchilarga o'zi tanlagan ish o'rniga muqova xatni mustaqil yozish topshirig'ini uy vazifasi sifatida beradilar;
- **8-“Muqova xatining nazorat ro'yxati”** ishchi varaqasini yordamchi vosita sifatida o'quvchilarga tarqatadilar.

Natijalar muhokamasi

Keyingi darsda ayrim o'quvchilar o'zi yozgan xatni o'qib beradilar. Sinfda xatlar qay darajada yaxshi yozilganligi va kamchiliklari muhokamasi bo'lib o'tadi.

5

Onlayn-ariza yozish

Onlayn-ariza yozish

Mavzu mazmuni



- Yozma ariza va onlayn-ariza o'rtasidagi farqlar
- E-mail orqali ariza yozish va yuborish
- Arizani onlayn-blankada yozish

Onlayn-ariza yozish

O'quv maqsadlari



O'quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- E-mail orqali ariza berishda nimalarga e'tibor berish kerakligi;
- Ariza hujjatlarining elektron shaklini jo'natish;
- Onlayn-blanka shaklidagi arizalarni to'ldirish.

Onlayn-ariza yozish

1-jarayon



O'quvchilar quyidagilarni bajaradilar:

- Yozma va onlayn ariza o'rtasidagi farqlarni aytadilar;
- 9- **“Onlayn-ariza”** ishchi varaqasini oladilar;
- E-mail orqali yuboriladigan ariza tarkibi nimalardan iborat bo'lishi kerakligini yozadilar;
- Umumiy natijalarni sinfda muhokama qiladilar;
- Ariza hujjatlarini ilovaga yuklashda nimani e'tiborga olish kerakligini bilib oladilar;
- E-mail orqali yuboriladigan arizani to'g'ri yozishni o'rganadilar.

Onlayn-ariza yozish

2- jarayon



- O'qituvchilar 10- **“E-mail orqali ariza berish – xatolarni toping!”** ishchi varaqasini tarqatadilar;
- O'quvchilar mustaqil ravishda ish varaqasi ustida ishlaydilar va guruhlarda o'zaro fikr almashadilar;
- O'qituvchilar 11- **“E-mail orqali ariza berish – Javoblar”** ishchi varagasini tarqatadilar;
- O'quvchilar o'z natijalarini tekshirish va baholash uchun javoblar varaqasidan foydalanadilar;
- Natijalar sinf bilan birgalikda umumiy muhokama qilinadi.

Onlayn-ariza yozish

3-jarayon



- O'quvchilarga uy vazifasi sifatida internetda onlayn-arizalarni taklif qiluvchi firmalarni mustaqil qidirish va E-mail orqali yuboriladigan arizani shakllantirish topshiriladi;
- Uy vazifasini bajarishda foydalanish uchun 12- **“E-mail orqali ariza berish — Ijobiy misol”** va 13- **“E-mail orqali ariza berish bo'yicha nazorat ro'yxati”** ishchi varaqalari tarqatiladi.

Natijalar muhokamasi

Keyingi darsning boshida ayrim E-mail orqali yuboriladigan arizalar o'qib eshittiriladi va sinf bilan birgalikda arizaning yutuq hamda kamchiliklari muhokama qilinadi.

6

Intervyu

Intervyu

Mavzu mazmuni



- Intervyuda nimalarga e'tibor berish kerak
- Intervyuning borishi
- Intervyuda ko'p uchraydigan savollar
- Rolli o'yinlar

Intervyu

O'quv maqsadlari



O'quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- Ariza berishdan keyingi jarayon haqida ma'lumotlar;
- Intervyuga tayyorgarlik;
- Intervyu jarayoni va unda ko'p uchraydigan savollar;
- Suhbat davomida yaxshi taassurot qoldirish uchun o'zini tutish qoidalari.

Intervyu

1-jarayon



- O'quvchilar intervyu uchun qaysi kiyim mos kelishi va mos kelmasligini muhokama qiladilar;
- Intervyuda ish beruvchilar qanday savollar berishi mumkinligi haqida fikr-mulohaza yuritadilar;
- Javoblar doskada jamlanadi va qo'shimchalar kiritiladi;
- O'quvchilarga 14- **"Intervyu uchun maslahatlar"** ishchi varaqasi tarqatiladi.

Intervyu

2 - jarayon



- O'quvchilar varaqani alohida o'qib chiqadilar;
- O'qituvchilar rolli o'yinni tushuntiradilar. Ularga bunda **15 - "Rolli o'yin"** nomli ishchi varaqa yordam beradi. **Lekin bu varaqa faqat o'qutuvchilar uchun, o'quvchilarga berilmaydi!**
- Rolli o'yin ikki turda o'tkaziladi (vaqt qolsa, qo'shimcha turlar o'tkazilishi mumkin)
- Rolli o'yinlardan so'ng, natijalari sinfda birgalikda umumiy muhokama qilinadi va baholanadi.

Intervyu

3-jarayon



Natijalar muhokamasi

Dars oxirida 16- **“Intervyu bo‘yicha nazorat ro‘yxati”** ishchi varaqasi tarqatiladi. Ochiq savollar muhokama qilinadi.